Yana bir misol Fransiya da mijoz bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatgan. Aqshning esa barcha yirik banklari mijozlarning uyida xizmat ko'rsatishni taklif etishadi.

Hozirda bizning banklarimiz xizmatini yaxshilashda mijozlarga ularni qoniqtiradigan to'liq xizmatlar ko'rsatishda rivojlangan jahon banklarining xizmatlarini sharoitimizga qulay va mos bo'lgan tomonlarini banklarimizda joriy etishga harakat qilinmoqda.

O'zbekistonda banklarni rivojlantirish maqsadida banklarni yangi xizmatlarni rivojlantirish hozirgi davrning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Banklarning xizmatini yanada rivojlantirishni yangi turlarini taklif qilish korxonalar faoliyatini rivojlanishiga yanada ko'proq xizmat qiladi.

Shu maqsadda banklar yangi xizmat turlarini taklif qilmoqda. Bular quyidagilar.

1. Ipoteka krediti
2. Iste'mol krediti
3. Plastik kartochkalar
4. Kommunal to'lovlar
5. Elektron to'lovlar
6. Bankomatlar
7. Ofisdan turib bank operatsiyalarini bajarish
8. Vester Yunion va boshqalar

1. Ipoteka kreditlari yasah joyida royxatdan o'tgan shaxslarga kredit muddatini belgilangan holda 18 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqoroligi beriladi.

Kreditlash ob'ekti bo'lib birlamchi va ikkilamchi bozorda sotiladigan uy-joylar ya'ni foydalanilayotgan va ko'p qavatli turar joylardagi alohida kvartiralar hisoblanadi. Ipoteka shartnomasi-kredit shartnomasi boyicha qarzdorlikni kamaytirish sifatida sotib olayotgan uy-joy garovini belgilash haqida tomonlar shartnoma tuzadilar.

Ipoteka krediti boyicha ta'minotga majburiy talablar quyidagilardan iborat:

- Boshlang'ich badal mablag'ning miqdori sotib olinadigan uy-joy umumiy qiymatining kamida 2,5 foizini tashkil etishi;
- Ipoteka (kredit hisobiga sotib olinadigan uy-joy garovi
- Kreditning to'liq davri davomida qarz oluvchining hayoti va mehnatga layoqatini sug'urta qilinishi
- Kreditning to'liq davri davomida garovga beriladigan uy-joyi sug'urta qilinishi
- Har bir qarz oluvchiga beriladigan kredit summasi eng kam ish haqining 2500 barobari miqdoridan oshmagan holda belgilanadi
- Uy-joy sotib olish uchun beriladigan kredit 10 yil muddatga 6 oylik imtiyozli davr beriladi. Ipoteka krediti sotib olinadigan uy-joy qiymatining 75% miqdoridacha beriladi.

Qarz oluvchining kredit olish jarayonidagi amalga oshiradigan xarajatlari:

- Mulk qiymatini baholashda amalga oshiruvchi to'lovlar;
- Uy-joy sotib olish bilan bog'liq hujjatlarni rasmiylashtirish xarajatlari
- Kreditning to'liq davrida sotib olingan uy-joyi qarz oluvchining hayotini va mehnat layoqatini sug'urat qilish badallari
- Bankning ta'riflariga muvofiq boshqa xarajatlari

- Qarz oluvchi kreditni rasmiylashtirish uchun quyidagi hujjatlarni bankga taqdim etadi

- Qarz oluvchining pasporti pensiya jamg'arma daftarchasining asl nusxasi taqdim etiladi.

- Qarz oluvchining boshlang'ich badali to'langanligini tasdiqlovchi hujjat

- Yashash joyidan olia tarkibi haqida ma'lumotnoma, oilaning voyaga yetgan va voyaga yetmagan a'zolari shaxsinim tasdiqlovchi hujjatlarning asl nusxasi taqdim etiladi.

- Qarz oluvchi tomonidan oxirgi 12 oyda asosiy va qo'shimcha ish joyidan olingan daromadlar va qiymatlar miqdori haqida ma'lumotnoma yoki qarz oluvchi yashash boyicha soliq organlari tomonidan tasdiqlangan daromadlari haqidagi deklaratsiyalar nusxasi

- Qarz oluvchining ish beruvchi tomonidan tasdiqlangan so'ngi, ya'ni hozirgi ish joydan mehnat shartnomasi va mehnat daftarchasidan nusxa:

- Uy-joyni sotib olish uchun tuzilgan shartnoma va boshqalar. 2. Istemol kredit-bu aholining istemol talablarini qondirishga yordam beruvchi kredit bo'lib, u jismoniy shaxslarga qaytarishlilik, maqsadlilik, talablik, muddatlilik va ta'minlanganlik shartlari bilan ajratiladi.

Iste'mol kredit faqat ифдшпәфе yoshiga yetgan va muomala layoqatiga ega doimiy yashash joyiga ega, royxatdan o'tgan shuningdek, doimiy ish yoki qonuniy boshqa daromad manbaiga ega bo'lgan yoshi 18 ga to'lgan va 55 yoshdan oshmagan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolarigina beriladi.

Iste'mol krediti 25 minim al ish haqidan ortiq bo'lgan buyurtmalar boyicha uch oydan uch yilgacha 500 minimal sih haqidan oshmagan holda milliy valyutada ajratiladi. Istemol krediti boyicha foiz stavkalari O'z. Res. Markaziy banklarining qayta moliyalash stavkasi miqdorida belgilanadi. O'z. Res. Da ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xarid qilish uchun istemol krediti foiz stavkalari qayta moliyalash stavkasining 0.75 foizni tashkil qiladi.

Istemol kredtini faqatgina maishiy va shaxsiy ehtiyojlari uning hisobiga sotib olinadigan tovarlarning bir turi ikkitadan oshmasligi lozim. Kredit buyurtmalarning rejasiga klo'ra turli istemol tovarlarning bir yo'la sotib olishga yo'naltrish mumkin.

Istemol krediti quyidagi taminot turlari biri yoki bir nechitasi asosida berilishi mumkin.

- Mijozga tegishli bo'lgan ko'char va ko'chmas mulk shu jumladan qimmatbaho buyumlarni yoki qimmatbaho qog'ozlar garovi;

- Qarz oluvchining depozitlari va qimmatbaho qog'ozlari joylashgan boshqa bank kafolati;

- Qarzdor tomonidan kredtini qaytarmaslik xatarini qaytarilmaslik to'g'risida sug'urat kompaniyasining sug'urta polisi;

- Qonunchilikda ko'zda tutilgan tarkibda tashkil etilgan sug'urta kompaniyasining kredti oluvchiga kelgusuda to'lanadigan sug'urta summalari hisobiga kafolat;

- Moliyaviy barqaror yuridik shaxslar kafilligi;

- Notarial guvohlantirilgan ikki va undan ortiq jismoniy shaxsning kafilligi qilingandan keyin qilinadi.

Funksional belgilarga qarab plastic kartochkalarni bir necha guruhga ajratish mumkin. Eng avvalo magnitli va electron kartalarni farqlamoq kerak.

Magnit kartalarni 37 yil avval sayohatga chiqqan biznesmenlarga xizmat ko'rsatish uchun chiqarilgan edi. 1993 yilda faqat G'arb mamlakatlarining o'zida ikki mlrd dan ortiq shunday kartochkalar bor edi. Ularning 5 xil turi tarqalgan. Ular quyidagilar:

1. Kredit kartalar
2. To'lov kartalar
3. Ijrochi kartalar
4. Kafolatlangan chek kartalar
5. To'lov qobilayati belgilangan kartalar

Electron kartalarning esa ikki xil turi bor:

- Mikroprosessorli
- Lazerli kartalar

Bankning raqobatbardoshlik imkoniyati o'sib, nafaqat naqd pullarni bank cheklarini to'lov aylanmasidan siqib chiqarishdek umumjahon tendensiyasida uning obro'sini yanada oshiradi.

3. Plastik kartochka iborasi mohiyyati xizmat ko'rsatish turlari o'zining plastic imkoniyatlari va ularni chiqargan tashkilotlari bilan farq qiladigan barcha turdagi kartochkalar uchun umumlashgan ibora hisoblanadi.

Plastik kartochkalari takomil darajasidan qat'iy nazar bitta muhim xususiyatga egadirlar, ya'ni ularda turli xil amali dasturlar foydalaniladigan axborotlar to'plami mavjuddir.

Pul muomalasi sohasida plastic kartochkalar naqd pulsiz hisob kitoblarning eng istiqbolli yo'nalishlardan biridir.

Hisob-kitoblar uchun mo'ljallangan barcha plastic kartochkalarni ikki guruhga ajratsih mumkin.

1. Shaxsiy
2. Koorperativ

Saxsiy kartochkalar xususiy shaxslarga ularning to'lov qobiliyatlarini hamda kredit tarixini, shuningdek, ushbu bankda joriy hisob varaq olingan yoki depozitni sug'urat qilingandan keyin briladi.

Koorperativ kartochkalar yuridik shaxslarga, ularning kafolati bilan hamda to'lov qobiliyatini taxlil qilingandan keyin beriladi.

4. Kommunal to'lovlar:

Communal to'lovlarni to'lashni yana yangi xizmat turlaridan biri plastic kartochkalr bilan amalga oshiriladi.

Masalan joylarda terminal o'rnatilgan bo'li ular orqali plastic kartochkagi mablag'lar communal xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarga naqdsiz to'lov tarzda o'tkazib beriladi.

Shu tarzda aholining kommunal to'lovlari xizmatlari amalga oshiriladi.

5. Bankomatlar (ATM-antomatid teller machinik) ko'p funksiyalarni bajaruvchi avtomatlar yoki avtofolar bo'lib, ular magnitli plastic kartochkalarning

so'ngi avlodi tomionidan boshqariladi. Dastlabki ATM lar 60 yillarda paydo bo'lgan edi. 70 yillar boshlarida kassa avtomatlaridan foydalanishda katta qiyinchiliklarga duch kelingan edi. Bankomatlarining oddiy operatsiyalada bajarilishda ishlatilishi bank xizmatlarini ixtisoslashgan xizmat turlarini ko'rsatishga jalb qilish bilan uzoq muddali istiqbolda aholiga xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

Avtomat kassalar bank xizmatlarini mijozlarga yaqinlashtirishga yordam beradi.

Iste'molchilar uchun ularning afzalligi bank operatsiyasining amalga oshirish, masalan, banklarda pul olish yoki qoyishga sarflanadigan vaqtga ancha tejalishga yordam beradi. Bank uchun avtomat xizmatlarini qisqartirish katta foyda olish, istemol bozoridagi mavqeini ushlab turish hamda raqobat ko'rsatkichini ustunlikka ega bo'lish vositasidir.

Bankomatlarining bunday tez rivojiga sabab banklarning shanba-bozor kunlari yopiq turdagi bank tizimlarga muqobil tizim yaratmoqchi bo'ldilar.

Xarajatlar nuqtai nazaridan bankomatlar yaratish va ularga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarga o'rin qolmaydi.

Bankomatlardan foydalanishning asosiy kamchiliklari quyidagilardan iborat.

1. Mijozning hisob varag'idan pulni ma'lum vaqtdan keyin emas, operatsiya bajarilgan kuniyoq ko'chirish

2. Kartochkaning yo'qotib qoyilishi. Buning oldini olish uchun AQSH bankomatlariga qiymati 5 ming dollar turadigan, hamda mijoz bankomat klaviaturasida o'z raqamini nterib boshlagandan ishga tushadigan foto kamera o'rnatildi.

3. Avtomatlar ma'lum muddat ishlamay qolishlari mumkinligi qiyinchiliklarni keltirib chiqarardi. Exspertlarning fikricha bunday to'xtalishlar bankomatlar ish vaqtining atigi 5 foizdan ortiq vaqtни egallaydi. Biroq ish hajmining haddan tashqari ekanligini hisobga olsa mijozlar uchun juda ko'p vaqt yo'qotish hisoblanadi.

Vester Yunion bank xizmatlarining rivojlantirishda yana xizmat turlaridan biri bo'lib "Vester Yunion" xalqaro to'lov tizimini shoxoibchalarini ochish va ular orqali bajariladigan amaliyotlar samaradorligini oshirish maqsadida "Ipoteka" bank aksiyadorlik tijorat ipoteka bank tizimida ularni ko'chirish yo'lga qoyilgan bo'lib "Vester Yunion" pullarni ko'chirish shoxobchalari orqali samarali xizmat qilib kelmoqda.

Mazkur pul ko'chirish shoxobchalari orqali xizmat ko'rsatib kelinayotgan mijozlar soni yil sayin ortib bormoqda va ushbu tizim orqali xizmat ko'rsatishda yuqori ko'rsatkichlarda erishib kelinayotganligini ko'rishimiz mumkin.

II. bob. «O'zsanoatqurulishbank» OATB Qashqaryo viloyati mintaqaviy filialining barqarorligini va ishonchliligi ta'minlash tizimining tahlili

2.1. «O'zsanoatqurulishbank» OATB Qashqaryo viloyati mintaqaviy filialining moliyaviy faoliyati tahlili

«O'zsanoatqurulishbank» OATB Respublika iqtisodiyoti tuzulmalarini tubdan o'zgartirish, bank tizimini isloh qilish va liberallashtirish orasidagi barcha jarayonlarda faol ishtirok etib kelmoqda. Bugungi kunda bankning asosiy e'tibori axborot texnologiyalari asosida ishlab chiqilayotgan innovatsion mahsulotlarga qaratilmoqda. Ana shunday mahsulotlar asosida «Internet bankning», SMS bankning, «Bank-mijoz» shuningdek turli shart sharoitlarga ega xalqaro pul jo'natmalari, xalqaro VISA plastic kartochkalari keng tarqalmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki bank tomonidan ishlab chiqarilayotgan xizmatlar «Bank expo-2011» bankl texnologiyalari, uskunalri va xizmatlari ko'rgazmasida yuqori baholangan va «Eng yaxshi texnik jihozlangan bank» deb e'tirof etilgan.

«O'zsanoatqurulishbank» – mamlakatdagi 4 yirik bank. U asosan sanoat sektoriga (neft, gaz, kimyo sanoati) xizmat ko'rsatadi. 2011 yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, bankning jami capital 183,3 mlrd sumni, nizom jamg'armasi esa 123,7 mlrd sumni tashkil qildi. Jami kredit qoyilmalari 1 trln 424 mlrd sumdan oshib, umumiy aktivlar hajmi 2 trln sumga ten bo'ldi. Bugungi kunda «O'zsanoatqurulishbank»ning 43 ta filiali, 100 ga yaqin mini banki, 174 ta jamg'arma, 150 ga yaqin maxsus kassasi va boshqa shoxobchalari ishlab turibdi.

Hisobod davriga ko'ra, bank tomonidan 21 ta sanoat qurulish korxonasiga 326,6 mlrd sum ekvivalentda xorijiy valyutada kredit mablag'lari ajratildi. Bundan tashqari bank mavjud korxonalar faoliyatini zamonaviylashtirish maqsadida ularni texnik va texnologik jihatidan qayta jihozlash uchun xorijiy investitsiyalarni jalb etmoqda. Ma'lumki bank sanoatning neft-gaz, kimyo, mashinasozlik, issiqlik energetikasi, suv resurslari ta'minot xavf yirik tarmoqlardagi loyihalarni moliyalashtirish bilan bir qatorda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ham qo'llab quvvatlab kelmoqda. Muassasasining 2013 yilda kichik biznes sub'ektlariga ajratgan kreditlar hajmi 228,1 mlrd sumni, shu asosida yaratilgan ishchi o'rinlari soni 6 mingga yaqinini tashkil qildi.

«O'zsanoatqurulishbank» naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini takomillashtirishda faol ishtirok etib kelmoqda. Mazku muassasa birinchilar qatorida plastic kartochkalar muomalasini amalga oshirib, u orqali chakana xizmat ko'rsatishni yo'lga qoygan, VISA xalqaro assotsatsiyasiga a'zo bo'lgan. Hozirgi kunda bank 840 ming dan ortiq «Visa electron» hamda «Visa klassik» plastic kartochkalarni muomalaga chiqarib, joylarga jami 4239 ta, jumladan, savdo shoxobchalariga 3973 ta jamg'arma kassa va minibanklariga 229 ta terminal hamda 20 donadan ortiq bankomat o'rnatgan. Ayni paytda bank tomonidan 1mln dan ortiq mijozlarga 50 ziyod an'anaviy va zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatilmoqda.

Jahonning nufuzli “Fifch Rating” hamda “Standart \$ Poor’s” xalqaro reyting agentliklari “O’zsanoatqurilishbank” faoliyatini tahlil qilib, uni istiqbolli va ishonchli, barqaror moliya muassasasi sifatida e’tirof etadi. Bank joriy “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili”da ham O’zbekiston Respublikasiurs ba’zasini yanada mustahkamlab, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ulushuni bundanda oshirishni maqsad qilgan.

“O’zsanoatqurilishbank” ochiq aksiyadorliktijorat banki plastic kartochkalari asosida naqd pulsiz to’lovlar tizimini yanada rivojlantirish maqsadida aholi e’tiboriga VISA xalqaro to’lov vositasi boyicha yangi xizmat turini taqdim etmoqda.

Muassasa joriy qilgan ushbu xizmat VISA Gold deb nomlanuvchi xalqaro plastic kartochkalarda mavjud standart imkoniyatlaridan tashqari, chegirma, bonus kabi qulay va sifatli xizmat turi sifatida bir qato imtiyozlarga ega.

“O’zsanoatqurilishbank” OATB “VISA International Servise Association” kompaniyasi ko’magi ostida VISA Gold mahsulotlari muomilaga chiqargani munosabati bilan 1-apreldan 30-iyunga daqar mamlakatimiz hududida ushbu turdagi kartochka egalarini rag’batlantirish maqsadida rpo-aksiya o’tkazmoqda.

Aksiya mamlakatimizning barcha aholisi ishtirok etishi mumkin. Bosh sovringa davogar bo’lish uchun “O’zsanoatqurilish bankning” VISA Gold plastic kartochkasi boyicha hisobvaraqa ochirib, bir va undan ortiq hisob-kitob amaliyotlarini amalga oshirish lozim. Taqdirlashning qo’shimcha shartlari esa mijozdan faqatgina ushbu plastic kartochkaga ega bo’lishni talab qiladi. Qayd etish joiz, VISA Gold asosidagi to’lovlarni Internet tar’mog’i orqali hamda butun dunyo boylab savdo servis korximalrida amalga oshirish mumkin.

“Ahbor-Reyting” agentli 2009 yil natijalariga ko’ra, “O’zsanoatqurilishbank” ochiq aksiyadorlik tijorat bankining kredit reytingi “uzA+” milliy shkalasi boyicha barqaror prognozi bilan tasdiqladi.

Mazkur reyting bankning yuqori darajada kredit qobiliyatiga egaligini va uning faoliyatida kredit xatarini pastligini bildiradi. “uzA+” reytingiga ega bank kreditorlar, depozitorlar hamda investorlar oldidagi moliyaviy majburiyatlarini o’z vaqtida va butkul bajara oladi.

“O’zsanoatqurilishbank” reytingi bankning davlat tomonidan qo’llab quvvatlanishi, bozordagi o’rni kuchli ekanligi, aktivlarning sifati yaxshiligi, barqaror likvid pozitsiyasi va adekvat kapitallashuvini shuningdek moliyaviy ko’rsatkichlari ijobiyligi anglatadi. Shuningdek, reyting aktivlar o’sishi va ular bilan bog’liq xarajatlar, bank biznesining sohaviy va mijozlarga oid konsentratsiyasi, o’sish startegiyasi va yangi aktivlar soyib olish bilan bog’liq ehtimoliy xatarlarni ham e’tiborga olgan. “O’zsanoatqurilishbank” davlat ishtirokidagi bank bo’lib, mamlakatimiz iqtisodiyotining bazaviy sohalarida korporativ sektor faoliyatining moliyaviy ta’minlanishida muhim o’rin tutadi. Bu borada bank capital investitsiyalar o’tkazish uchun uzoq muddatli kreditlar orqali yordam bermoqda.

“Ahbor-Reyting” agentligi “O’zsanoatqurilishbank” biznesi hamda bank sektoridagi hissasi barqaror o’sayotganini qayd etadi. Jumladan, 2009 yil oxiriga

kelib bank aktivlari 2008 yil bilan solishtirganda 11.11%ga o'sdi va 1,57 trln so'mni tashkil etdi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, 2010 yilning 9-oyi mobaynida bank aktivlari 10%ga o'sdi va 2010 yil oktabr holatiga 1.73 trln so'm, xususan, kredit portfeli 1,29 trln so'mga yetdi. Bankning sof foydasi avvalgi yil bilan taqqoslaganda 2.5 baravarga kamaydi va 2009 yil oxirida 5978,6 mln so'mni tashkil etdi. Ammo 2010 yilning 9-oyi yakunlariga ko'ra sof foyda sezilarli darajada o'sgan.

Kreditlash hajmining jadal o'sishiga qaramay, bank krediti portfeli sifatining yaxshi saqlanib qolayotgani muhim reyting omili sifatida xizmat qilmoqda. 2009 yil hisobotiga ko'ra "O'zsanoatqurilishbank" asosan yoqilg'I energiya sanoatiga (64,94%), transport (11.52%), savdo va oziq-ovqat kompaniyalariga (8.10%) kredit mablag'lari ajratgan.

Ko'rib chiqilayotgan davrda zayom fondlash bazasi asosan qisqa muddatli bo'ldi. 2009 yil oxiriga kelib jami zayom fondlashda mijozlar hisoblari 84,95 % tashkil etdi. Bank yomonidan jalb qilingan barcha mablag'larda jismoniy shaxslarning ulushi 21,8%ga yetdi. "Ahbor-Reyting" agentligi fikricha zayom fondlash bazasining qisqa muddatli bo'lishi vabunda yirik pozitsiyalarning saqlanib qolishiga qaramay, davlat tomonidan qo'llab quvvatlash va tashqi qarz imkoniyatlari kengligi tufayli "O'zsanoatqurilishbank"ning fondlash borasidagi moslashuvining boshqa banklariga nisbatan yuqoridir.


Bankning likvid va aktivlari darajasi yetarli darajada yuqori-17.6% shuningdek, "O'zsanoatqurilishbank"ning likvid pozitsiyasi yaxshi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda bank kapitalining adekvadlik ko'rsatishini maqbul deyish mumkin. 2009 yil yakunlariga ko'ra, bankning o'z kapitali avvalgi yilning shu davriga nisbatan 2.68% ga, jumladan aksiyadorlik kapitali 9.33%ga o'sdi. Capital yetarlilik koeffitsienti 11.6%ni, I-darajali capital yetarliligi koeffitsienti ham 11.6%ni tashkil qildi.

2010 yil 1-oktabr holatiga ko'ra, "O'zsanoatqurilishbank" asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha mamlakatimizdagi eng yirik 5 ta banklar qatoriga kirdi. Uning bank sektoriga 9.1% aksiyadorlik kapitalida 6.73% kreditlash bo'yicha 12.24%, depozitlarda 8,06% va investitsiyalarda 9.26% ulushi bor.

2.1.1-jadval

Bo'sh pul mablag'lari, pul resurslari zarur bo'lgan sohalarga bank tizimi orqali oqib o'tadi



2.1.2-jadval

“O'zsanoatqurilishbahr” OATB tahliliy ko'rsatkichlari

	2010 yil chorak	2009 yil	2008 yil	2007 yil
Jami aktivlar sof mln sumda	1728.6	1577	1419.3	961.6
O'z kapitali mln so'mda	178.8	156	151.9	76.3
Ssudalar va lizinglar mln sumda	1290.1	1261.3	1009.5	599.4
O'z mablag'lari aktivlar, foizda	10.34	9.89	10.70	7.93
Joriy likvitlik koeffisienti, foizda	51.96	52.12	70.99	66.12

2.1.3-jadval

Bank operatsiyalari tahlili (ming so'm)

T/r	Ko'rsat-kichlar	2008 yil		2009 yil		O'zgarishi	
		summa	%	summa	%	summa	%
1	Aktiv operatsiyalar	3826574809	51.91	4815692336	51.88	989117527	125.85
2	Passiv operatsiyalar	3486043401	47.29	4382977580	47.22	896934179	125.73
3	Vositachilik haqi va ko'rsatilgan xizmatlar	58799432	0.80	83979141	0.90	25179709	142.82
	Jami	7371417642	100	9282649	100	1911231415	125.93

2.1.4-jadval

Bank operatsiyalari tahlili (ming so'm)

T/r	Ko'rsatkichlar	2009 yil		2010 yil		O'zgarishi	
		summa	%	summa	%	summa	%
1	Aktiv operatsiyalar	4815692336	51.88	6035463567	51.82	1219761231	125.33
2	Passiv operatsiyalar	4382977580	47.22	5488628921	47.12	1105651341	125.23
3	Vositachilik haqi va ko'rsatilgan xizmatlar	83979141	0.90	123478897	1.06	39499756	147.04
	Jami	9282649	100	11647561385	100	2364912328	125.48

Bank operatsiyalarini tahlil qilish jarayonida bankning aktiv operatsiyalari 2008 yilga nisbatan 2009 yilda 25,85% ga, ya'ni 989117527 so'mga, 2009 yilga nisbatan 2010 yilga 25,33%ga ya'ni 1219761231 so'mga ortganligini ko'rishimiz mumkin. Passiv operatsiyalar ham yildan yilga bajarilganligini ko'rishimiz mumkin. 2008 yilga nisbatan 2009 yilga bankning passiv operatsiyalari 896934179 so'mga, 2010 yilga esa 1105651341 so'mga ortganligini ko'rishimiz mumkin. Vositachilik va ko'rsatilgan xizmatlar 2008 yilga nisbatan 2009 yilda 25179709 so'mga ko'paygan, 2010 yilda esa 47.04%ga ya'ni 39499756 so'mga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Moliyaviy inqiroz davom etayotgan bir paytda bank xizmatlarini ko'paytirish, bank kapitalini oshirib boorish va bankga bo'lgan ishonchni ta'minlash muhim hisoblanadi. Davlatimizning iqtisodiy salohiyatini va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bevosita tijorat banklari bilan chambarchas bog'liq.

2.1.5-jadval

Bank passiv operatsiyalari tahlili (ming so'm)

№	Ko'rsatkichlar	2008 yil		2009 yil		O'zgarishi	
		summa	%	summa	%	summa	%
1	Davlat korxona, tashkilot va muassasalarning talab qilib olguncha saqlanadigan depozitlari	2648341040	75.97	3290143400	75.07	641802360	124.23
2	Yakka tartibdagi tadbirkorlikning talab qilib olguncha saqlanadigan depozitlari	786934030	22.57	10008943300	23.02	222009270	128.21
3	Jismoniy shaxslarning talab qilib olguncha saqlanadigan depozitlari	50768331	1.46	83890880	1.91	33122549	165.24
	Jami:	3486043401	100	4382977580	100	896934179	125.73

2.1.6-jadval

Bank passiv operatsiyalari tahlili (ming so'm)

№	Ko'rsatkichlar	2009 yil		2010 yil		O'zgarishi	
		summa	%	summa	%	summa	%
1	Davlat korxona, tashkilot va muassasalarning talab qilib olguncha saqlanadigan depozitlari	3290143400	75.07	409341004	67.81	802197604	124.38
2	Yakka tartibdagi tadbirkorlikning talab qilib olguncha saqlanadigan depozitlari	10008943300	23.02	1800349588	29.83	791406288	178.44
3	Jismoniy shaxslarning talab qilib olguncha saqlanadigan depozitlari	83890880	1.91	142762975	2.37	58872095	170.18
	Jami:	4382977580	100	6035453567	100	1652475987	137.7

Biz yuqoridagi jadvalni ya'ni "O'zsanoatqurilishbank" Qashqadaryo viloyati filialining passiv operatsiyalarini tahlil qilish jarayonda davlat, korxona muassasalarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari 2008 yilda 2648341040 so'mni tashkil qilgan bo'lsa 2009 yilda 3290143400 so'mni tashkil etgan. 2008 yilga nisbatan 2009 yilga 641802360 so'mga ko'paygan. 2010 yilda davlat, korxona va muassasalarning talab qilib olguncha saqlanadigan depozitlari 4092341004 so'mni tashkil etgan, 2009 yilga nisbatan 2010 yilda 802197604 so'mga ko'payganligini ko'rishimiz mumkin. Yakka tartibdagi tadbirkorlarning talab qilib olguncha saqlanadigan depozitlari 2008 yilga nisbatan 2009 yilga 202010270 so'mga ko'payganligini, 2009 yilga nisbatan 2010 yilga 791406288 so'mga oshganligini ko'rish mumkin. Jismoniy shaxslarning talab qilib olguncha saqlanadigan depozitlari 2008 yilda 50768331 so'ni, 2009 yilda 83890880 so'mni tashkil etib, 2008 yilga nisbatan 2009 yilga 33122549 so'mga ko'paygan. 2010 yilda jismoniy shaxslarning talab qilib olguncha saqlanadigan depozitlari 142762975 so'mni tashkil etgan. 2009 yilga nisbatan 2010 yilda 78872095 so'mga ko'paygan. "O'zsanoatqurilishbank" Qashqadaryo viloyati passiv operatsiyalarining jami 2008-yilda 3486043401 so'mni, 2009 yilda 4382977580 so'mni tashkil etgan.

2.1.7-jadval

Korxona operatsiyalari tahlili (ming so'm)

T/r	Ko'rsatkichlar	2008 yil		2009 yil		O'zgarishi	
		summa	%	summa	%	summa	%
1	Kassa orqali operatsiyalar	687748179	92.85	784847971	92.37	97099792	114.12
2	Pul almashtirish shaxobchalari operatsiyalar	52997015	7.15	64799510	7.63	11802495	112.27
3	Bankamatlar orqali operatsiyalar	-	-	-	-	-	-
	Jami	740745194	100	849647481	100	108902287	114.7

2.1.8-jadval

Korxona operatsiyalari tahlili (ming so'm)

T/r	Ko'rsatkichlar	2009 yil		2010 yil		O'zgarishi	
		summa	%	summa	%	summa	%
1	Kassa orqali operatsiyalar	784847971	92.37	1160947668	94.51	3760996	147.92
2	Pul almashtirish shaxobchalari operatsiyalar	64799510	7.63	67434309	5.49	2634799	104.07
3	Bankamatlar orqali operatsiyalar	-	-	-	-	-	-
	Jami	849647481	100	1228381977	100	378734496	144.58

Yuqoridagi Jadvalni ya'ni "O'zsanoatqurilishbank" Qashqadaryo viloyati filialining kassa operatsiyalarini tahlil qilish jarayonida quyidagilarni aniqladik. Kassa orqali bo'lgan operatsiyalar 2008 yilga nisbatan 2009 yilga 14,2%ga o'sganligi bilishimiz mumkin. 2010 yilga kelib ham 42,92%ga ortgan. Pul almashtirish orqali shoxobchalari orqali operatsiyalar deyarli 2008-2010 yillarda, tildan yilga o'sganligi quyidagilardan ko'rishimiz mumkin. 2008 yilda pul almashtirish shoxobchalari orqali operatsiyalar 52997015 so'mga, 2009 yilga 64799510 so'mga bajarilgan 2008 yilga nisbatan 2010 yilga ko'p bajarilganini ko'rishimiz mumkin. Hozirgi vaqtda naqd pulning banklarga to'liq kelib tushmasligi natijasida banklarda naqd pul tushish muammosi mavjud. Bank xizmatlarining yangi turlaridan biri plastic kartochkalar hisoblanib kelgusida shu xizmat turini rivojlantirish Markaziy bank pul kredit siyosatini qo'llab quvvatlash maqsadida plastic kartochkalarni keng miqyosda targ'ib etish muhim hisoblanadi. Lekin chekka tumandagi banklarda bankamot orqali operatsiyalar deyarli past darajada ekanligini yuqorida jadvallardan ko'rishimiz mumkin.

2.1.9-jadval

Bank aktiv operatsiyalari tahlili (ming so'm)

T/r	Ko'rsatkichlar	2008 yil		2009 yil		O'zgarishi	
		summa	%	summa	%	summa	%
1	Naqd pullar	48448179	95.44	584847971	95.46	100099792	120.65
2	Inkassa pullar	924083	0.18	1142380	0.19	218297	123.62
3	Boshqa aktivlar	22256779	4.38	26652977	4.35	4396198	119.75
	Jami	507929041	100	612643328	100	104714287	120.62

2.1.10-jadval

Bank aktiv operatsiyalari tahlili (ming so'm)

T/r	Ko'rsatkichlar	2009 yil		2010 yil		O'zgarishi	
		summa	%	summa	%	summa	%
1	Naqd pullar	584847971	95.46	760947668	94.28	176099697	130.11
2	Inkassa pullar	1142380	0.19	1186676	0.15	44296	103.88
3	Boshqa aktivlar	26652977	4.35	44995647	5.57	18342670	168.82
	Jami	612643328	100	807129991	100	194486663	131.75

Moliyaviy inqiroz davom etayotgan bir paytda O'zbekistonda bank tizimini qo'llab quvvatlash maqsadida davlat tomonidan olib borilayotgan banklarni qo'llab quvvatlash, ularni to'lovlik qobiliyatini oshirish davlatni qo'llab quvvatlashishi natijasida ortib bormoqda. Biz o'rganayotgan bank "o'zsanoatqurilishbank" Qashqadaryo viloyati filali misolida bankning 2008 -2010 yillardagi faoliyatini o'rganganimizda bankning aktiv operatsiyalarini tahlil qilish jarayonida biz bankning naq pul tushumlari 2008 yilga nisbatan 2009 yilda 20,65 %ga ya'ni 1000997792 sumga, 2010 yilda 30,1% ya'ni 176099697 sumga ko'payganini ko'rishimiz mumkin. Inkassa qilingan pul tushumlari 2008 yilga nisbatan 2009 yilda 2362% ga 2010 yilda 3,88 % ga ko'paygan boshqa aktivlar esa 2008 yilga nisbatan 2009 yilda 4396198 sumga 2009 yilga nisbatan 2010 yilga 18344670 sum ko'paygan. "O'zsanoatqurilishbank" Qashqadaryo viloyati filialining quyidagi aktiv operatsiyalarining jami 2008 yilda 507929041 sumni tashkil etgan 2009 yilda 612643328 sumni 2010yilda 807129991 sumni tashkil etgan bo'li ular orasidagi o'sish sur'ati 2008 yilga nisbatan 2009 yilda 104714287 sumga 2009 yilga nisbatan 2010 yilga 194486663 sumga ko'payganligini ko'rishimiz mumkin.

2.2. Bank tizimini rivojlantirishda kredit salohiyati va kredit berish tartibini tahlili

O'zbekiston Respublikasi. Hududida xo'jalik yurutuvchi sub'ektlarda kredit berish tijorat banlari tomonidan "Banklar va banklar faoliyatini to'g'risida"gi qonun asosida boshqa meyoriy hujjatlarga muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Kreditlar O'zbekiston Respublikasi. Ning "Korxonalar to'g'risida"gi qonunida asosan kredit uz kapitali va mustaqil balansiga yuridik shaxs huquqiga mustaqil xo'jalik yurutuvchi sub'ektlarga beriladi. Tijorat banklari xo'jalik yurutuvchi sub'ektlarga ularning mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar shartnoma asosida qisqa va uzoq muddatli kreditlar beriladi. kredit mijozning hisob-kitob varag'i joylashgan bankda beriladi. Zarar ko'rib ishlaydigan nolikvid balansga ega bo'lgan xo'jalik yurutuvchi sub'ektlarda kredit berilmaydi. Ilgari berilgan ssudalar esa belgilangan tartibda nobarqarorlik xo'jasizlik va zararlarni qoplash uchun foydalanishga yo'l qoymaydi. Kreditlar muddatiga ko'ra qisqa muddatli, o'ratmuddatli va uzoq muddatli turlarga bo'linadi.

Qisqa muddatli kredit amal qilish muddati 12oydan oshmaydigan ssuda bolib uning muddatining uzaytirilishi kreditlanayotgan tadbirlarni o'tkazish muddati ularniung qoplanishi va boshqa shartlardan kelib chiqq holda belgilanadi. Qisqa muddatli ssudalar kreditlarning boshqa turlariga nisbatan likvidliroq hisoblanadi.

- O'rat muddatli 1 yildan 3-5 yilgacha beriladi

- Uzoq muddatli kreditlar 3-5yildan ortiq nmuddatga beriladi

Kreditlar bir necha tamoyillar asosida amalga oshiriladi.

1. Kreditning muddatliligi
2. Kreditning qaytarilishligi
3. Kreditning ta'minlanganliligi
4. Kreditning to'lovliligi
5. Kreditning maqsadliligi

Kredit iqtisodiy munosabatning belgilangan tizimi sifatida boshqa pul munosabatlaridan farq qiladi. Ya'ni pulning xarajati qaytarib berish sharti bilan aamlga oshiriladi.

Kreditning keying tamoyili muddatlilik bo'li u qaytarishlilik tamoyili bilan uzviy bog'liq holda bo'ladi. Kreditlarning muddatlilik 2 tomonlam xarakterga ega. Birinchidan kreditning mohiyati vaqtincha foydalanishga berilgan mablag'larning qayatrilishigina bildirib qolmay balki bu qaytarilishni aniq muddatini belgilashni taqozo etadi. Kreditning muddati bir tomondan foydalanishga berilayotgan kredit resurslarini bo'sh turish muddati bilan belgilansa, ikkinchi tomondan qarz oluvchining mablag'larga bo'lgan vaqtinchalik ehtiyojlarning muddatiga bog'liq. Krditlash muddatlilogining bu ikki tomonlama xarakterini nisbatga olinganda vaqtincha foydalanishga berilgan mablag'larning to'liq va belgilangan muddatga qaytarilishini ta'minlash mumkin. Kreditning muddatliligiga rioya qilish banklar uchun ham qarz olubvhilar uchun ham, muhim ahmiytaga ega. Buning hisobiga bank kredut resurslarining aylanishini jadallashtirsalar va ulardan oqilona foydalanishga erishsalar xo'jalik o'z daromoadlarini ko'paytirish va o'z vaqariz

mablag'laridab foydalanish samarasini oshirishlari mumkin. Kredit muddatini uzaytirish aksariyat hollarda bankning ruxsati bilan amalga oshiriladi. Kredit muddati qarz olingan mablag'karni qaysi davrgacha foydalanishini hisobga olgan holda belgilanadi.

Qaytarilishi tamoyili kreditning mohiyatini ifodalaydi. Bank tomonidan mijozlarga beriladigan har bir so'm pul mablag'lari bankga qaytarilishi lozim. Qayatrib berishni iqtisodiy asosi sifatida mablag'larning uzviy doiraviy aylanishi hisoblanadi. Qayatrish tamoyilining shunday muhim xususiyati borki, kreditni boshqa Tovar-pul munosabatlarning iqtisodiy kategoriyalaridan farqi bo'lgan iqtisodiy kategoriya sifatida ajralib turadi.

Kreditni keying tamoyili-kreditning ta'minlanganligidir. Bunda ssudaning ta'minlanganligi kredit berilishga asosan qarz oluvchining mulki moddiy boyliklar zaxiralari ko'chmas mulk yoki ishlab chiqarish xarajatlari summasiga mos kelishi bilan belgilanadi. Bu o'z navbatida kreditni o'z muddatiga qaytarilishiga kafolat berilishini ta'minlaydi. Olingan kredit mablag'lari korxonada ishlab chiqarish zaxirasi, tugallanmagan ishlab chiqarish yoki tayyor mahsulot hamda mavjud moddiy boyliklarni ta'minlah uchun beriladi.

2.2.1-jadval

Muddatlar	Rossiya	AQSH	B.Britaniya	Fransiya	O'zbekiston
Qisqa	1 yilgacha	1 yilgacha	3 yilgacha	1 yilgacha	1 yilgacha
O'rta	1-3 yilgacha	1-6 yilgacha	3-10 yilgacha	2-7 yilgacha	1-3 yilgacha
uzoq	3 yildan ortiq	6 yildan ortiq	10 yildan ortiq	7 yildan ortiq	3 yildan ortiq

Bu tamoyil asosan korxonalarga berilgan ssudalar yoki tomonlar majburiyatlari bilan real ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasi da banklar faoliyatining xalqaro banklar faoliyatining xalqaro bank amaliyotiga yaqinlashib borayotgan sharoitida kreditning ta'minlanganligi sifatida Tovar moddiy boylik va xarajatlardan tashqari garovi, kafolat va kafillik kabi shakllari ham amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Ssudaning o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash uchun kredit shartnomasiga ko'ra qarz oluvchi garovga ma'lum qiymatga ega bo'lgan mol-mulkni qoyib rasmiylashtiradi. Agr kreditni oluvchi kreditni o'z vaqtida qaytara olmasa, u holda garovni sotish choralari ko'riladi.

Kreditni yana bir tamoyili haq to'lashlilik. Bunda shartnomaga ko'ra kredit oluvchi korxona o'z ehtiyoji uchun kreditga olingan pul mablag'laridan vaqtinva foydalanganligi uchun bankka belgilangan haqni to'lashi lozim. Bank muassasalari kredit foizi hisobidan o'z xarajatlarini qoplaydilar.

Kreditlash ob'ekti-bu qarzga olingan summa va uning qaysi obekt Tovar moddiy boyliklar xarajtlar va hokazoga yo'naltirilganligini anglatadi.

Kreditlash sub'ektlariga ya'ni qarz oluvchi bo'lib mulkchilik turidan qat'iy nazar bank ishonchini qozongan, ma'lum moddiy va huquqiy kafolatlarga ega foiz to'lash va kreditni o'z vaqtida qayatrishga rozi bo'lgan sub'ektlar bo'lishi mumkin.

Jahon amaliyotida bank kreditlarini yagona umumlashtirilgan tasnifi yo'q. chunki kreditlarni turli shakllari har bir mamlakatni iqtisodiy rivojlanish darajasiga, uning urf-odatlariga, aholi orasida ssudalrni berish va qaytarish tarixan shakllangan. Usullarga bog'liq bo'ladi. Bank kredit operatsiyalrini tasniflash mezonlari:

1. Bank kreditlarini qarz oluvchilarning guruhlar boyicha tasniflanishi mumkin: bank kreditlarini oluvchilari bo'lib hukumat, boshqa banklar, xo'jalik sub'ektlari, moliyaviy tashkilotlar va aholi hisoblanadi.

2. Kredit maqsadi yoki qaysi sohaga yo'naltirilishi boyicha sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo institsion, iste'mol va boshqa kreditlarga bo'linadi.

Bank kreditlari ishlatilishi sohasi boyicha asosiy kapitalni moliyalashtirish uchun yoki aylanma kapitalni moliyalash uchun beriladi.

3. Hajmi boyicha kreditlar katta, o'rat va kichik guruhlariga bo'linadi. Lekin xalqaro amaliyotda bu kreditlarni yagona o'lchov mezoni yo'q. XVF, YTTBning nuqtai nazaridan 10000 AQSH dollargacha bo'lgan summadagi kreditlar kichik kreditlarga kiradi.

4. Qaytarilish muddati boyicha kreditlar talab qilinguncha va muddatli bo'ladi. Muddatli kreditlar qisqa va uzoq muddatli bo'ladi. Ssudalarni bum mezon boyicha turli mamlakatlarda farqlanadi. Aksariyat banklar qisqa va uzoq muddatli kredit berish bialn shug'ullanadi.

5. Ta'minlanganligi boyicha ta'minlangan va ta'minlanmagan kreditlarga bo'linadi.

Ta'minlangan kreditlar ta'minlanganlik harakatiga qarab quyidagilarga bo'linadi:

- Garovli
- Kafolatlangan
- Sug'urtalanganlik
- Boshqalar

Ta'minlanmagan kreditlar ishonchli (blankali) deb ham nomlanadi.

Ta'minlanmagan kreditlar qarz oluvchining obro'sini va uning daromadini darajasini baholashdan keyingina beriladi.

Kreditning sifati past bo'lganda ham u ta'minlanmagan kredit deb yuritiladi. Bunda kreditlar boyicha kreditning qaytmaslik riski yuqori bo'ladi.

6. Berilish usullari boyicha kreditlar qoplash uchun va to'lov kreditlarga bo'linadi. Birinchi holatda kredit qarz oluvchining hisob varag'iga xarajatlarini qoplash o'tkaziladi. Bunda avans mablag'larini o'tkazish ham, naarda tutiladi. Ikkinchi holatda bank ssudasi bevosita naqd puliz hisob-kitoblarga hisovhujjatlarini berish uchun beriladi. Shu bilan birga bir martalik kreditlar ham beriladi. Ya'ni shartnomada belgilangan muddat va summada taqdim etiladi biroq ko'pchilik mamlakatlarda kredit liniyalari keng qo'llaniladi.

7. Bank kreditlarini qayatrish tartibi boyicha 2 guruhga ajratish mumkin. 1-guruhga bir vaqtda qaytariladigan kreditlar, 2-guruhga bir necha muddatda bo'lib-bo'lib to'lanadigan kreditlar kiradi.

Odatda yuridik shaxslar va aholiga xorijiy ehtiyojlarni qoplash uchun naqd pul mablag'lari kerak bo'lganda beriladigan qisqa muddatli kreditlar bir vaqtda qaytariladigan kreditlar kiradi.

Bir necha muddatda qayatriladigan kreditlar bu ikki yoki undan ortiq to'lovlar bilan amalga oshiriladigan ssudalar hisoblanadi. Bu guruhga turli xil kreditlar: tijorat, ochiq schot boyicha, veksel, lizing, factoring, farfeyting va boshqalar kiradi.

Bozor iqtisotiyoti rivojlangan mamlakatlarda bir necha muddatda qaytariladigan kreditlar yuridik va jismoniy shaxslaraga tovarlar beriladigan o'rta va uzoq muddatli kreditlashda qo'llaniladi.

Jahon moliya bozorlarida investitsiya loyihalrini amalga oshirish uchun kreditlar bir necha muddatlarda qaytarilishlilik sharti bilan beriladi.

8. Foiz stavkalarining turlari boyicha bank kreditlarini 2 guruhga bo'lish mumkin; qat'iy foizlardagi kreditlarga va suzuvchi foiz stavkalaridagi kreditlarga.

Ssudalar kreditlashning butun muddatiga beriladigan va qayta ko'rib chiqilmaydigan qat'iy foiz stavkalri shartlarida berilishi mumkin.

Qarz oluvchi bu holatda foiz stavkalari bozorlarida konyuktura o'zgarishiga qaramasdan kreditdan foydalanganligi uchun o'zgarmas kelishilgan stavkada foiz to'laydi. Bu ham kreditorga, ham qarz oluvchiga qulay, chunki ikkila tomon ham berilgan kreditdan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan o'z daromad va xarajtlarini hisoblab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi. Qat'iy foiz stavkalari odatda qisqa muddatli kreditlashda qo'llaniladi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda kreditlarni berishda qat'iy va suzib yuruvchi foiz stavkalrining har ikkalasi ham keng qo'llanilmoqda.

Suzib yuruvchi fopiz stavkalri-bu kredit bozorlarda vujudga keladigan holatlarga bog'liq bo'lgan doimiy o'zgaradigan foizn stavkalaridir.

9. Kredit qaysi valyutada berilishiga qarab ham guruhlarga bo'linadi. Odatda tijorat banklari kreditlarni milliy valyutada yoki chet el valyutasida berilishi mumkin. O'zbekistonda milliy valyuta va chet el valyutasidagi kreditlar ko'p qo'llanilmoqda.

10. Kreditlar soni boyicha kreditlar quyidagi guruhlarga bo'linishi mumkin:

- Yagona bank beradigan kreditlar
- Sindikatlashgan kreditlar
- Parallel kreditlar

Amaliyotda bir bank tomonidan beriladigan ssudala keng tarqalgan.

Sindikatlashgan kreditlar-birlashgan ikki yoki undan ortiq kreditorlar birqarzdorga kerdit taqdim etadi.

Amaliyotda ikki yoki undan ortiq banklar qarz oluvchiga parallel kreditlar berish holatlarda ham bo'lishi mumkin. Sindikatlashagan kreditdan farqli o'laroq bu holatda mijoz bilan har bir bank alohida ish olib boradi. So'ngra esa umumiy kredit shartnomasini tuzadilar.

2.2.2-jadval

Bankning kredit operatsiyalari tahlili (ming so'm)

T/r	Ko'rsatkichlar	2008 yil		2009 yil		O'zgarishi	
		summa	%	summa	%	summa	%
1	Berilgan qisqa muddatli kreditlar	948891004	31.71	1047198400	26.91	98307396	110.36
2	Berilgan o'rta muddatli kreditlar	-	-	-	-	-	-
3	Berilgan uzoq muddatli kreditlar	2043718004	68.29	2843972174	73.09	800254170	139.16
	Jami	2992609008	100	3891170574	100	9898561566	130.03

2.2.3-jadval

Bankning kredit operatsiyalari tahlili (ming so'm)

T/r	Ko'rsatkichlar	2009 yil		2010 yil		O'zgarishi	
		summa	%	summa	%	summa	%
1	Berilgan qisqa muddatli kreditlar	1047198400	26.91	1895016080	36.14	847817680	180.96
2	Berilgan o'rta muddatli kreditlar	-	-	-	-	-	-
3	Berilgan uzoq muddatli kreditlar	2843972174	73.09	3347817	63.86	5038452	117.72
	Jami	3891170574	100	5242833480	100	1351662906	134.74

Bankning kredit operatsiyalari 2008 yilga nisbatan 2009 yilga berilgan qisqa muddatli kreditlar nisbatan 98307396 so'mga o'sganligi, 2010 yilga kelib ham berilgan qisqa muddatli kreditlar 80.96% ga ya'ni 847817680so'mga ko'payganligini ko'rishimiz mumkin. O'rat muddatli kreditlar ham xuddi shunday yildan yilga bajarilayotganligini ko'rish mumkin. Jadvaldan berilgan uzoq muddatli kreditlar bank kresitlarini katta qismini tashkil etgan. 2008 yilda 64.64%ni tashkil etib berilgan uzoq muddatli kreditlar 2009 yilga 72.49 %ni, 2010 yilga kelib 63.28%ni tashkil etgan. Bu esa banklarni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash natijasida bank faoliyati yildan yilga kengayib bormoqda. "O'zsanoatqurilishbank" Qashqadaryo viloyatining jami berilgan kreditlari 2008 yilda 3021309008 so'm, 2009 yilda 3923170574 so'mni tashkil etgan. 2008 yilga nisbatan 2009 yilda bank kredit resurslari 901861556 so'mga ko'paygan. 2010 yilga 5290833 so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2009 yilga nisbatan 2010 yilda 1367662906 so'mga ko'paygan.

2.3. Bank resurslarini tashkil qilish va ularni miloyalashda investitsiyalarni rolini kuchaytirish.

Mamlakatimiz prezidenti O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi qabul qilinganligining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilgan ma'ruzalarida " bugun biz yashayotgan globallashuv va tobora kuchayib borayotgan raqobat asrida faqat chuqur islohotlar va modernizatsiya yo'lidan tinimsiz va qat'iyat bilan rivojlanib boorish natijasida o'z oldimizga qoygan istiqbolli maqsadlarga-taraqqiy topgan, farovon yashayotgan demokratik davlatlar qatoriga kirish, xalqimiz uchun munosib hayot darajasini ta'minlashga erisha olamiz" deb ta'kidlagan edilar.

Ushbu maqsad yo'lida tijorat banklari roli va ahamiyatini yuksak baholagan holda, mamlakatimiz rahbari oldimizga tijorat banklarining investitsiyaviy loyihalarini moliyaklashtirishdagi ishtirokini yanada kuchaytirish, tavakkalchiliklarni baholash va ekspertiza qilish tizimini takomillashtirish orqali kredit portfeli sifatini yaxshilash va doimiy o'sishini ta'minlash, kreditlar boyicha muomila qarzдорlikning shakllanishiga yo'l qoymaslik yuzasidan oldindan ogohlantirish choralari ko'rish boyicha vazifalar va aniq marralarini belgilab berdilar. Tijorat banklari passiv operatsiyaalrining asosan 4 ta shakli mavjud.

1. Tijorat banklari qimatbaho qog'ozlarini muomalag chiqarish yo'li bilan resurslar yig'ish
2. Bank foydasi hisobidan har xil fondlar tashkil qilish yoki fondler summasini oshirish
3. Boshqa kreditorlarning mablag'larini jalb qilish
4. Deposit operatsiyalarini amalga oshirish

Tijorat banklarining resurslari bankning o'z mablag'lari jalb qilingan va emitentlashgan mablag'lar hisobidan shakllanadi.

Banklarning ustav kapitali so'mmasi bank ustavida ko'rsatiladi va ishini boshlashning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi.

Banklarning tashkil qilishning shakllariga qarab bankning ustav kapitali ham har xil tashkil qilinadi. Agar bank aksiyadorlik jamiyati tariqasida tashkil bo'lsa, ustav kapitali summasi qonun yo'li bilan chegaralanmaydi. Banklarning barqaror faoliyatini ta'minlash maqsadida uning minimal miqdori belgilab beriladi. Muddatli qoyilmalarning terlaridan biri-mablag'larni jalb qilishning aniq qayd etilgan vaqtda mo'ljallangan deposit sertifikatlari hisoblanadi. Ko'pgina mamlakatlarda aholi bo'sh pul mablag'larini banklarga jalb etishni jonlashtirish maqsadida banklarga turli imtiyozlar tizimi qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2000 yil 19-maydagi 195-sonli qarorida "tijorat banklarining daromad solig'ini hisoblab chiqishda soliq solinadigan baza jismoniy shaxslarning muddarli omonatlarining ko'paygan summasiga kamaytirilishi belgilab qoyilgan. Bunda, soliqlar to'lashdan bo'shaydigan mablag'lar omonatlar boyicha foiz stavkalarini oshirishga maqsadli yo'naltirilishi shart".

2.3.1-jadval

Bank resurslari tarkibi

№	Ko'rsatkichlar	Bank № 1	Bank № 2
1.	O'z mablag'lari-jami jumladan	17.4	7.2
1.1.	Ustav fondi	3.9	1.3
1.2.	Boshqa fondler	9.4	3.2
1.3.	Joriy yildagi taqsimlanmagan foyda	4.1	2.7
2.	Jalb qilingan mablag'lar jami jumladan	82.6	92.8
2.1.	Muddatli depozitlar	76.9	70.1
2.2.	Muddatsiz dipozitlar	4.3	4.3
2.3.	Aholi qo'yilmalar	0.3	0.4
2.4.	Sertifikatlar veksellar	1.1	-
2.5.	Banklararo kreditlar	-	18.0

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki alohida tijorat banklarining resurslari, strukturasi sezilarli farq qiladi.

1-bankning o'z mablag'lari 2-banknindan 2 marta ortiq. Birinchi bankda ustav fondi 3,9 %ni, o'z mablag'lari summasining 22,3%ni tashkil etgan. 2-bankda ustav fondi 1,3%ni ya'ni o'z mablag'lar summasini 18%ni tashkil etgan. 1-bank esa aksariyat hollarda mijozlarining resurslari bilan ishlagan.

Bu o'zgarishlarning bo'lishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi. Bular :

- Banklararo kredit bozorida banklarning faol ishtirok etishini ta'minlanishi va bu o'z navbatida kredit riskini kamaytirganligini;
- Iqtisodiyotda yo'lovsizlik muammosining mavjudligi va kredit qaytarilmasligi oqibatida tijorat banklarining zarar ko'rish imkoniyati oshishi;
- Aholi qo'lida omonatlarni o'sishi;
- Koorparativ qimmatli qog'ozlar bozorining yetarli darajadagi rivojlanmaganligi va boshqalar;

2.2.3-jadval

Tijorat bankining resurs bazasi va undan foydalanish to'g'risida ma'lumot

№	Ko'rsatkichlar	Минг сўм	%
	Bankning resurs bazasi. bankning o'z mablag'lari		
1.	Bank kapitali-jami (30000 k 29830 x.v.)-shu jumladan	226209	33.1
	Aksiyadorlik kapitali (30300 k 29830 x.v.)	82739	12.0
	Qo'shimcha kapital (30600 x.v.)	0	0
	Rezerv kapital (30900 x.v.)	40254	6.0
	Taqsimlanmagan foyda (31200 x.v.)	103216	15.1
	Vositachilik qiymatini baholashda shu jumladan	0	0
2	Jalb qilingan depozitlar shu jumladan	170989	25.1
	Talab qilinguncha qadar (20200 x.v.)	109794	16.1

	Jamg'arma (20400 x.v.)	10957	1.6
	Muddatli (20500 x.v.)	17159	2.5
3	Mijozlarning boshqa depozitlari (22600 x.v.)	1614	0.3
4	Bashqa banklarning depozitlari va vikillik schyotidagi qoldiq (21000)	0	0
5	Chiqariladigan qimmatli qog'ozlar (23600 x.v.)	0	0
6	Forvard-valyuta kursi (22800 x.v.)	0	0
7	Boshqa majburiyatlar (29800 x.v. 29830 x.v.)	1259	0.2
8	Kliring transaksiyalari (23200-23204, 23208, 23210, 23212, 23218, 23220 x.v.)	0	0
9	Boshqa passivlar (22200 k 23220 x.v.)	30206	4.4
10	Bankning jami o'z ixtiyorida bo'lgan resurs bazasi (1+2+3+4+5+6+7+8+9) qatorlar	397198	58.2
11	Sotib olingan resurslar jami: (21600+21800+22000 x.v.)	285674	41.8
	Markaziy bankdan (21602, 21802, 22002 x.v.)	187333	27.4
	Moliya vazirligidan (21610, 22010 x.v.)	0	0
	Banklararo pul bozoridan (21606, 21806)	0	0
	Nobyudjet fondlardan (21605, 21805, 22005 x.v.)	0	0
12	Xukumat hisob varaqalari (23400 x.v.)	40430	5.9
	Bankning jami resurs bazasi (10k 11k 12) qatorlar	682872	100

2.3.2 jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki tijorat banki resurs bazasining 3.1% bankning o'z mablag'lari, ya'ni bank capital va taqsimlanmagan foydasiga to'g'ri keldi. Bank ixtiyorida bo'lgan resurslarning 25.1% jalv qilingan depozitlarga to'g'ri keladi. Shunday qilib bank ixtiyorida bo'lgan o'zi yig'gan resurslar jami 58.25% tashkil qiladi. Bank tomonidan sotib olingan resurslar esa 41,9%ni tashkil qiladi. Markaziy bankdan olingan kredit resurslarini 8,5 %ni Moliya Vazirligidan olingan resurslarni 5,9% hukumat hisob varag'idan bo'lgan resurslarni tashkil qiladi.

2.3.2 jadval

Bank resurslarining ishlatilishi

№	Bank resurslarning yo'nalishi		
1	G'aznadagi mablag'lar va qimmatbaho metallar (10100 k 10900 x.v.)	88491	12.9
2	Markaziy bankdagi majburiy rezerv zaxiralar (10309 x.v.)	0	0
3	Boshqa banklardagi vakillik hisob varaqalaridagi mablag'lar va depozitlar (10500 x.v.)	0	0
4	Sotib olingan qimmatli qog'ozlar (10700, 11300 x.v.)	0	0
5	Faktoring operatsiyalar (11100 x.v.)	0	0
6	Banklararo kreditorlar (12100+13300 x.v.)	0	0
7	Hukumatga ajratilgan kreditlar (12300 x.v.)	0	0

8	Sof kredit quyilmalar (12500, 12600, 12700, 12900, 13100, 13700, 13800, 13900, 14000, 14300, 14900, 15100, 15300, 15500, 15700 x.v.)	42915	62.9
9	Sof investitsiyalar (15600 x.v.)	0	0
10	Bank mulki (16500, 17700, 19921, 19923)	43876	6.4
11	Forvardlar va valyutaviy holat (16900, 17100 x.v.)	0	0
12	Tranzit hisob varaqlari (17300 x.v.)	0	0
13	Hukumat hisob varaqlari (17500 x.v.)	0	0
14	Boshqa aktivlar (19900+16100+16300-19921, 19923 x.v.)	121300	17.8
15	Jami qo'yilmalar (1+2+3+4+5+6+7+8+9+10+11+12+13+14)	682818	0
16	Ortiqcha bo'sh resurslar (1-bo'lim 13 k 2-bo'lim 15 k)		54
17	Vakillik hisob varag'idagi qoldiqlar (10301 x.v.)	60112	
18	Moliya vazirligidagi fondagi mablag'lar (23204, 23208, 23210, 23212, 23218, 23220 x.v.)	59354	
19	Vakillik hisobvarag'idagi ortiqcha (bo'sh) mablag'lar (17 k 18 k)	758	
20	Vakillik hisob varaq nolikvidliligi (18 k 17 k)	0	

2.3.3 jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatib turibdiki tijorat banki resurslarining bir qismi bankning g'aznadagi mablag'larni va boshqa operatsiyalarni amalga oshirishga yo'naltirilsa mablag'larning asosiy qismi kredit berish uchun sarflanadi. Ya'ni resurslar hisobidan berilgan sof kreditlar salmog'I mablag'lar sarfidan 62.9%ni tashkil qiladi. Mablag'ning 17.8% boshqa aktivligiga yo'naltirilgan hamda undan tashqari 54 ming so'm miqdorida ortiqcha resurslar mavjud. Vakillik hisob varaqasidagi bo'sh mablag'lar 758 ming so'mni tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risidagi" qonunning 8-moddasida bir yo'la to'lanadigan va calendar badallar banklarning fondga to'lanadigan majburiy badallarchegirib tashlanadi.

Bundan ko'rinib turibdiki banklarning deposit operatsiyalari rivoji uchun katta imkoniyatlar yaratildi va banklar bu sohada yuqori natijaga erishmoqda. Albatta bu sohada erishilgan muvoffaqiyatlar quvonarlidir. Lekin fikrimizcha hali bu sohada erishilgan muvaffaqiyatlar quvonarlidir.

Aholining bo'sh pul mablag'akrini banklarning depozitiga qabul qilish uchun banklar tomonidan joriy etilgan deposit turlarini, foiz hisoblash tartiblarini soddalashtirilgan holda keng xalq ommasiga tushunarli qilib ishlab chiqish, ularning bo'sh pullarini banklarda saqlashning afzalliklari to'g'risida ommaviy axborot vositalari orqali kengko'lamda reklama va tashviqot ishlarini tashkil etish, shuningdek, banklar berayotgan bunday reklamalarni bepul yoki imtiyozli ravishda e'lon qilishini joriy etish zarur.

Yuqorida biz aholining bo'sh pul mablag'larining turli xil depozitlarga jalb qilishning iqtisodiyot uchun qanqalilik muhim ekanini aytib o'tdik. Lekin banklarda aholining bo'sh pul mablag'larini qabul qilishga yetarlicha imkoniyat, qulay shart sharoit, aholiga tez va sifatli xizmat ko'rsatish joriy etilmas ekan. Aholining bo'sh pul mablag'larini qanday yo'l bilan jozibadaor depozitlarga jalb qilish mumkin?

Bu borada rivojlangan G'arb mamlakatlarida tashkil quilingan ish uslublarini keng o'rganishimiz va zarur xulosalar chiqarishimiz mumkin deb hisoblayman.

M-n, Germaniya omonat kassalarining ish faoliyatida foyda olish asosiy maqsad emas balki aholiga ijtimoiy va boshqa yo'nalishlarga qulayliklar yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qoyadilar. Shunga qaramasdan foyda ko'rsatkich omonat kassalari uchun muhim ahamiyatga ega. U hozirgi vaqtda banlarning iqtisodiy yuksalishi asosiy manbaidir.

Xorijiy bankamaliyotida plastic kartochkalar yordamida operatsiyalar aholi bo'sh pul mablag'larini banklarga jalb etish va pul mablag'larini bank orqali yo'nalishini taminlovchi manba bo'lib xizmat qiladi. Huddi shu yo'nalishda ish tashkil qilish va rivojlantirish boyicha O'zbekiston Respublikasi hududida meyoriy huquqiy baza yaratildi. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari zimmasiga 2002 yil 1-oktiyabrgacha kredit plastic kartochkalar muammolariga chiqarish yuizasidan majmuaviy chora tadbirlarni ishlab chiqish 2003 yil yanvardan boshlab esa Toshkent shahrida tajriba tarzida plastic kartochkalardan foydalanish yo'li bilan ish haqi to'lashga bosqichma bosqich o'tish vazifasini yuklatildi. Tijorat banklari chakana savdo va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'illanuvchi xo'jalik yurituvchi subektlar bilan birgalikda tovarlar va xizmatlar haq to'lash sifatida plastic debit kartochkalari qabul qilishni taminlovchi terminlar tarmog'ini kengaytirish to'g'risidagi qaror qabul qilindi. Qarorning asl mohiyati nima iqtisodiyotga tasiri shuningdek plastic kartochkalar nima uning afzalliklari kamchiliklari nimalardan iborat.

Plastik kartochkalar debet va kredit turlariga bo'linadi. Shuningdek ularni magnit va mikrokontrollirli turlarga ham ajratish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan banklar ustav kapitali talablar iqtisodiy ahvol va bankning moliyaviy holatidan kelib chiqib markaziy bank tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida o'z shuba bankkini ochishini yoki bu yerdagi bank ustav kapitalidagi ishtirok qilish maqsadi bildirgan norezident bank ustav kapitali 30 mln AQSH dollari ekvivalentining teng summadan kam bo'lmasligi kerak.

Bankning tasviji shakliga qarab ustav kapitalini oshishi mumkin. Aksionerlik jamiyati ko'rinishidagi tijorat banklar o'z ustidan kapitalini oshirishlari uchun qo'shimcha miqdorda aksiyalar chiqarishlari va ularni yuridek va iqtisodiy shaxslar orasida tarqalishi mumkin.

Ma'suliyati cheklangan jamiyat ko'rinishida tashkil topgan banklar o'zlarini ustav kapitalarini yoki qo'shimcha ishtirokchilarni ulushini oshirish orqali ko'paytirishlari mumkin.

III-bob. Tijorat banklarining moliyaviy ahvolini mustahkamlashdagi muammolarni hal etishning ustivor yo'nalishlari

Malumki banklar tomonidan jalb etilgan mablag'lar amalga oshiriladigan aktiv operatsiyalar, ya'ni kredit operatsiyalarining asosini tashkil etadi. Banklar aholi va yuridik shaxslarning vaqtincha bo'sh mablag'larini jalb etib iqtisodiyotning aylanma mablag'lariga bo'lgan talabini qondiradi, pulning sarmoyaga aylanishiga sharoit yaratadi aholi va tadbirkorlik su'bektlarga kreditga bo'lgan ehtiyojini ta'minlaydi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalari tijorat banklarining deposit siyosatini zamon talablariga mos ravishda tashkil etishga chorlamoqda. Banklar o'rtasida jismoniy va yuridik shaxslar mablag'larini jalb etish boyicha sog'lom raqobatning kuchayishi jamg'armalar turini ko'paytirish, ularga to'lanadigan foiz stavkalari va xizmat ko'rsatish uslublari yangicha yondashuvlarda tashkil etishga olib keldi. Bugungi kunda banklar tomonidan taklif etilayotgan 400 dan ortiq omonat turining har biri o'ziga xos xususiyatga ega. Mijozlarga bo'sh mablag'larni jamg'arish, ular hisobidan turli Tovar va xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirishlari uchun keng imkoniyat yaratilgan.

Mijozlarga bank xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatlarini yanada oshirish va qulayliklar yaratish maqsadida tijorat banklari bo'limlari tarmog'ini kengaytirish ishlari uzluksiz davom ettirilmoqda. 2011 yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, tijorat banklarining joylardagi mini bank va maxsus kassalarining umumiy soni har 1000 nafar katta yoshli aholiga 1012 tani tashkil etdi.


Shu o'rinda ta'kidlash joizki. So'ngi yillarda tijorat banklari tarkibiy tuzulishida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Aholiga qulayliklar yaratish maqsadida tijorat banklarining shoxobchalari masalan, mini-bank hamda omonat operatsiyalarini amalga oshiradigan turg'un va sayyor kassalari faoliyat yurita boshladi.

Natijada banklar tomonidan jalb qilingan depozitlar hajmi 2010 yilda avvalgi yilga nisbatan 52% oshdi yoki 13.2 trln so'mni tashkil etdi. Aholining kredit tashkilotlaridagi depozitlar hajmi 1,5 barobar o'sib, 4,4 trln so'mga yetdi.

Markaziy bankning pul kredit siyosati 2010 yil uchun mo'ljallangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning bajarilishiga, shuningdek 2009-2012 yillarga bajarilgan inqirozga qarshi chora tadbirlar dasturida belgilangan vazifalarning so'zsiz bajarilishini ta'minlashga qaratiladi. 2010 yilda mamlakatimiz bank tizimi likvidligini yanada mustahkamlash, uning barqarorligini uchaytirish borasida katta ishlar amalga oshiriladi.

Natijada, tijorat banklarining jami kapitali 2009 yilga nisbatan 1.4 baravar oshib 2011 yilning 1-yanvar holatiga ko'ra 4,1 trln so'mni tashkil etildi. (1-diagramma)


1-diagramma



Banklarning kapitallashuvini oshirish boyicha olib borilgan ishlar respublika bank tizimi kapitalining yetarlilik darajasi ko'rsatkichini umumiy qabul qilingan xalqaro standartlarga nisbatan 3 barobar yuqori bo'lishi ta'minlanadi.


Banklari 2009 yilga nisbatan 32,1 % o'sib 20,7 trln so'mdan oshdi (2-diagramma).

2-diagramma



2010 yil avgustida "Moody's" xalqaro reyting agentligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi bank tizimining rivojlanish istiqbollarini "barqaror" deb baholangan hamda mamlakatimizning 15 ta tijorat banki faoliyati "Fitch rating's", "Moody's" va "Standart & Poor's" kabi yetakchi xalqaro reyting kompaniyalarining "barqaror" degan yuqori reyting bahosini olganliklari ham tasdiqlab turadi.

Banklarning kredit va investitsion faoliyatida ham ijobiy o'zgarishlar amlga oshiriladi. Hisobot yilda iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kreditlarning umumiy hajmi 35 %ga ko'payib, bugungi kunda ularning miqdori 11,5 trln so'mdan oshib ketdi (3-diagramma).

3-diagramma**Iqtisodiyotning real sektorlariga yo'naltirilgan kreditlar miqdori (mlrd.som)**


Banklarning umumiy kredit portfelida uzoq muddatli, ya'ni 3 tildan ortiq muddatga beilgan investitsiya kreditlarining ulushi 2000 yilning oxirida 75,2%ga o'sdi.

O'tgan davr davomida tijorat banklari tomonidan ushbu korxonalarga kiritilgan 156 mlrd so'mlik investitsiyalar hisobiga jami 460 mlrd so'mlik mahsulot ishlab chiqariladi, shundan 165 mln AQSH dollarlik mahsulot eksport qilindi hamda 21 mingdan ortiq ishchi o'rinlari yaratildi.

O'tgan tili banklar tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab quvvatlashga alohida e'tibor berildi. Mazkur sohaga ajratilgan kreditlar shakillantirishning mezonlari va baholash tizimini aniqlash va amalga oshirishga doir chora tadbirlar dasturi to'g'risidagi PQ 1464-sonli qarorlari, shuningdek 2009-2012 yillarga mo'jjallangan inqirozga qarshi choralar dasturi belgilangan vazefalarning so'zsiz bajarilishini ta'minlashga qaratilgan.

2011 yilning 1-choragida mamlakatimiz bank tizimining likvidligining yanada mustahkamlash uning barqarorligini kuchaytirish maqsadida katta ishlar amalga oshirildi.

Buning natijasida tijorat banklarining jami kapitali 2010 yilning shu davriga nisbatan 1,4 barobarga oshob 2011 yil 1-april holatiga ko'ra, 4-trln 528-mlrd so'mdan oshib ketdi (4-diagramma).


4-diagramma**Banklarning jami kapital (mlrd.som)**

Banklar5 kapitallashuvi darajasini yanada oshirish borasida amalga oshirilgan chora tadbirlar natijasida ularning xalqoro qabul qilingan standartlarga nisbatan ancha yuqori bo'lishi taminlandi.

Bank aktivlari 2010 yilning shu davriga nisbatan 33,5% o'sib, 22 trln. 925-mlrd . so'mdan oshib ketdi. (5-diagramma)

5-diagramma

Banklarning jami capital (mlrd.som)




Yuqori xalqoro reyting ko'rsatgichlariga har tomondan mamlakatimiz bank tizimi aktivlarining 90% dan ortig'ini tashkil qiladigan 15 ta tijorat banki "Fitch ratings", "Mooodiys va "Sitandart poors kabi yetakchi xalqoro reyting agentliklarining "barqaror reyting darajasiga erishadilar.

Banklarning kredit va investitsion faoliyatida ham ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi.

2011 yilning birinchi choragida iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kreditlarning umumiy hajmi 36 %ga ko'payib bugungi kunda ularning miqdori 12 trln.986mlrd. so'mga yetdi (6-diagramma).

6-diagramma

Iqtisodiyotning real sektorlariga yo'naltirilgan kreditlar miqdori (mlrd.som)



Banklarning investitsiya maqsadlarga ajratilgan investitsion kreditlari miqdori ham o'tgan yilning shu davriga nisbatan 37 % ga oshib, joriy yil 1-aprel holatiga ko'ra ularning miqdori 1 trln. 11 mlrd.so'mdan oshib ketdi.


2011 yilning 1-choragida iqtisodi nochor korhonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish va boshqarish mehanizmlarini takomillashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida tijorat banklari balansiga qabul qilingan iqtisodiy nochor korhonalarning 141 tasida ishlab chiqarish faoliyati to'liq qayta tiklandi. Ishlab chiqarish faoliyati tiklangan korhonalardan 73 tasi 750.1 mlrd so'mga strategic investorlarga sotildi.

Mazkur korhonalarda 21 mingdan ortiq yangi ishchi o'rinlar yaratilib, ular tomonidan 2011 yilning 1-choragida davomida 115.4 mlrd so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Shundan 32mln dollardan ortiq miqdoridagi mahsulotlar eksport qilindi.

“Kichik biznes va xususiy tadbirkorli yili” Davlat dasturida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilgan keng ko'lami chora tadbirlar natijasida kichik biznes subektlariga ajratilgan kreditlar hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1.4 baravar oshib, joriy yil 1 aprel holatiga ko'ra, 866 mlrd so'mni tashkil etdi.(7-diagramma)

7-diagramma

Tijorat banklari tomonidan ajratilgan investitsion kreditlar (mlrd.som)




Jumladan mikrokreditlar hajmi 159.8 mlrd so'mni tashkil qilib, bu ko'rsatgich ham 2010 yilning 1 choragiga nisbatan 1.4 barobar ko'paydi.

Horijiy kredit liniyalarini jalb qilish hisobiga kichik biznes subektlariga kreditlar ajratishni yanada kengaytirish borasidagi chora-tadbirlar doirasida tijorat banklari tomonidan 2011 yilning 1 choragi davomida xalqaro moliya institutlarining 25.3 mln AQSH dollari miqdiridagi kredit liniyalari o'zlashtirildi. Mazkur kreditlar hisobiga hududlarda 46 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.

Tijorat banklarining kapitallashuvi darajasini yanada oshirish, ushbu sohaga hususiy kapitalni keng jalb qilish, resurs bazasini ko'paytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar natijasida banklarning ja'mi depozitlari miqdori yil sayin ortib bormoqda. Xususan, ushbu ko'rsatgich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 52.4% ga oshib, bugungi kunda ularning miqdori 15 trln. 213 mlrd so'mdan oshdi (8-diagramma)

8-diagramma


Jami dipozitlar qoldig'i (mlrd.som)



Aholining bo'sh mablag'larini kredit tashkilotlarning depozitlariga jalb qilishni rag'batlantirish choralari ko'rilayotganligi, qulay omonat turlari taklif etilayotganligi, ularning banklardagi jamg'armalari qonun bilan kafolatlanganligi va o'z vaqtida qaytarilayotgani omonatlar miqdorining 2010 yil shu davriga nisbatan 52.7 % ga oshib, hzirgi kunda 5 trln.237 mlrd. so'mga yetishiga puhta zamin yaratdi. Bu esa fuqarolarimizning bank tizimiga bo'lgan yuksak ishonchidan dalolat beradi.(9-diagramma)

9-diagramma


Aholi daromadlari oldig'i (mlrd.som)



Respublikamizda naqd pulsiz hisob kitoblar tizimini yanada rivojlantirish borasida ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijasida muomalaga chiqarilgan plastic kartochkalar soni 7.9 mln. donadan oshib ketdi. Savdo va xizmat ko'rsatish shahobchalariga o'rnatilgan hisob-kitob terminallari soni esa 86 ming 100 taga yetdi(10-diagramma).

10-diagramma

Tijorat banklari tomonidan o'rnatilgan terminallari (dona)



Hususan, tijorat banklari rahbarlari zimmalariga mamlakatimiz Prezidenti tomonidan Vazirlar Mahkamasining shu yil 21 yanvarda o'tkazilgan majlisida 2011 yil uchun belgilab berilgan ustuvor vazifalarni amalgam oshirilishini ta'minlash, bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish, ularning investitsion faoliyatini kuchaytirishga doir farmon va qararlarda belgilangan vazifalarning so'zsiz bajarilishini ta'minlash, banklarning kapitallashuv darajasini yanada oshirish, aholi va chet ellik investorlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchini oshirish.

Tijorat banklariga "Kichik biznes va hususiy tadbirkorlik yili" Davlat dasturida belgilangan barcha tadbirlarni izchil bajarilishini ta'minlash, banklarning barcha bo'lim va filiallarida biznesni rivojlantirish uchun yanada qulay ishchan

muhitni yaratish, kichik biznes va hususiy tadbirkorlik subektlariga kreditlar ajratish, birinchi navbatda, investitsiya maqsadlari uchun uzoq muddatli kreditlar ajratish mehanizmlarini yanada takomillashtirish va ularning hajmini oshirish, boshlang'ich kapitalni shakllantirish, mikrokreditlar ko'lamini kengaytirish borasidagi ishlarni faol davom ettirish vazifalari ham yuklatildi. Shuningdek ularning e'tibori kichik biznes va hususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishni har taraflama qo'llab quvvatlash bilan bog'liq ishlarning samaradorligi uchun shahsan javobgar ekanligiga qaratildi.

Xulosa va takliflar

O'zbekiston iqtisodiyotiga jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz ta'sirini kamaytirish maqsadida Respublika hukumati tomonidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilib ular bosqichma-bosqich amalgam oshirilmoqda.

Mamlakatimiz Prezidentimiz Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yonalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida iqtisodiyotning boashqa sohalari qatori Respublikamiz bank-moliya tizimida ham jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va uning ta'sirini e'tiborga olgan holda barqarorlikni ta'minlash muhim ustuvor vazifa bo'lib qoralayotganini alohida qayd etib o'tilgan. Bu yo'lda bugun banklarning kapitallashuvi va investitsiyaviy faolligini ynada oshirish iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarning ustuvor yo'nalishlarini qayta tiklash va kengaytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash qaratilgan kreditlash hajmini oshirish muhim ahamiyat ksb etmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan Respublika bank moliya tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning barqarorligini yanada oshirish, banklar va butun bank-moliya tizimini faoliyatini baholash tizimlarini va yondashuvlarini tubdan o'zgartirish, bank faoliyatini tashkil etishning xalqaro andozalariga meyorlariga va baholash ko'rsatgichlariga mos ravishda yanada yuqori darajaga ko'tarilishini ta'minlash maqsadida 2010 yil 26 noyabrda "2011-2015 yillarda" Respublika bank-moliya tizimini yanada isloh qilish va uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko'rsatgichlariga erishishining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1438 sonli qarori qabul qilindi. Unda respublika bank-moliya tizimi oldida respublikada bank nazorati tizimi belgilab berilgan.

Tijorat banklarining kapitalini oshirish va barqarorligini ta'minlash borasida davlat tomonidan qator choralar ko'rilmogda .Yirik tijorat banklari -"Qishloq qurilish bank", "O'zsanoatqurilish bank", "Xalq bank" va boshqa qator banklarning ustav kapitali oshirilib undagi davlat ulushi ko'paytirildi. Banklarning daromadlari manbalariga ko'ra foizli va foizsiz daromadlarga ajratiladi. Foizli daromadlar bank yalpi daromadlarining asosiy qismini tashkil etadi. Shuning uchun ham iqtisodiy tahlilda foizli daromadlarning yalpi daromadlar hajmidagi salmog'ining barqarorligi ko'rsatgichi alohida hisoblanib tahlil qilinadi.

Xalqaro bank amaliyotida, xususan yevrohudud mamlakatlarning amaliyotida tijorat banklarining kreditlardan olingan foizli daromadlarining yalpi daromadlar hajmidagi salmog'i 60 % dan oshadi. Bu esa tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi ta'minlanganligidan dalolat beradi. Chunki kreditlar berish tijorat banklari faoliyatining asosiy yo'nalishi hisoblanadi. ahon tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlarining tavsiyasiga ko'ra, tijorat banklari aktivlarining umumiy hajmida kreditlar kamida 60% ni tashkil qilinishi, kreditlardan olingan foizlarning yalpi daromadlar hajmidagi salmog'I kamida 60% ni tashkil qilinishi lozim.

- tijorat banklari yalpi daromadining hajmida kreditlardan olingan foizlar yuqori salmoqni egallaydi, bu esa ularning kreditlash amaliyotini takomillashganidan dalolat beradi;

- 2005-2010 yillarda respublikamiz tijorat banklari kapitali va depozitlarining o'sish tendensiyasiga ega bo'lganligi mazkur davrda ularning kredit operatsiyalari hajmini oshirish uchun zamin yaratdi;

- kreditlarning, bankning brutto aktivlari hajmidagi salmog'ining yuqori ekanligi foizli daromadlarning umumiy hajmida kreditlardan olingan foizlarning salmog'ining yuqori bo'lishiga sabab bo'lmoqda;

- OATB "Ozsanoatqurilishbank"da ja'mi aktivlar 2007-2010yillar davomida dinamik ravishda o'sib 961.6mln so'mda 1728.6mln. so'mni tashkil etgan, shunga mos ravishda bank o'z mablag'lari hajmi dinamik ravishda o'sib 2007yildagi 76,3mln.so'mdan 2010yilda 178,8 mln. so'mni tashkil etgan.Ammo korhonaning joriy likvidlik koefitsiyenti 2007yildagi 66,12 foizdan 2010 yilda 51,96 foizga tushgan,bundan ko'rinib turibdiki banklarning moliyaviy ahvoli salbiy tomonga o'zgargan;

- bank operatsiyalari tahlilidan ma'lumki bankning aktiv operatsiyalari passiv operatsiyalariga nisbatan yuqori foizni tashkil etib 2008 yilda ja'mi operatsiyalarning 51,91foiz, 2009 yilda 51,88 %, 2010 yilda 51,82%tashkil etgan.Bankda Yuqorida bayon etilgan fikrlar va tahlillarga asoslanib shuningdek, o'tkazilgan izlanishlarga tayangan holda quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

- vositachilik haqi va ko'rsatilgan xizmatlar juda kichik foizni tashkil etadi,ya'ni ular 2009-2010 yillarda ja'mi operatsiyalarni 0,80%-1,6% ni tashkil etgan. Bu ma'lumotlardan hulosa shuki banklarda nafaqat aktiv va passiv operatsiyalar va boshqa foizsiz operatsiyalarni shakllantirish bozor sharoitida yaxshi samara beradi.Bankning passiv operatsiyalari tarkibida katta salmoq davlat, korhona,tashkilot va myassasalarning talab qilib olguncha saqlanadigan depozitlariga to'g'ri kelib ularni ja'mi passiv operatsiyalarni 67-75 % ni tashkil etadi.Bundan xulosa shuki kichik biznes va hususiy tadbirkorlikni rivojlantirish sharoitida YatTni, jismoniy shaxslar omonatini jalb qilish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir."Ozsanoatqurilishbank"ning jismoniy shaxslarni talab qilib olgungacha ikki uch foizni tashkil qiladi.

Xulosa shuki YatT lar va jismoniy shaxslaning depozitlarini bankka ko;plab jalb qilib ularning salmog'ini oshirish kerak. Bu esa bank resurlarini oshirishga, moliyaviy ahvolini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosalardan kelib chiqqan holda quyidagi takliflarni bildiramiz:

- bank likvidlilik darajasini oshirib boorish;
- bank kredit berish strategiyasini puhta ishlab chiqish;
- bank nazoratini oshirib borish va moliyaviy faoliyatini tahlil qilib boorish zarur;
- banklarning moliya bozoridagi mavqeini oshirish va daromadlilik darjasini ko'tarish maqsadida bank xizmatlari turlarini oshirish va ularni mijozlarga yaqinlashtirish .

Foydalanilgan adabiyotlar royhati.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T: O'zbekiston, 1992 yil.
2. "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonuni 25.04.1996yil.
3. "Bank siri to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonuni. 30.08.2003 yil. №530-11
4. "O'zbekiston Respublikasining Markaziy Banki to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonuni 25.12.1995 y. №154-1
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori 2007y. 7 noyabr. №PK-726
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Naqd pul mablag'lrini jalb qilish va unga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori. 2008 yil 27 mart. PK-822.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholini omonatlarini jalb qilish bo'yicha Respublika tijorat banklari o'rtasida tanlov o'tkazish to'g'risida" gi qarori. 2008 yil 31 oktabr. №PK-991.
8. "Banklarning kapitallashtirishni yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ular ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 12.06.2007 y.
9. "Tijorat banklarining kapitallashtirish darajasini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni 19.12.2006y.
10. "Naqd pul muomalasini takomillashtirish va bankdan tashqari aylanmani qisqartirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 15.04.2005. №PK-57.
11. "Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori 15.04.2005. №PK-56.
12. Karimov. I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. I.A. Karimov- T: O'zbekiston 2009. -56 b.
13. Mamlakatimizda demokratik islohatlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi. Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasiva senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Turkiston 2010 yil 13 noyabr.
14. Barcha reja va dasturimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga hizmat qiladi. Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2011 yil 22.01.y
15. I.A. Karimov. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida tuzuvchi F.M. Mo'llajonov T: O'zbekiston, 2005-528 b.

16. “Plastik kartochkalar asosida hisob kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish choraq tadbirlari to’g’risida “O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 sentabrdagi 405-son Qarori.
17. “Qarz oluvchining kredit tarixi to’g’risidagi axborotni xisobga olish tizimini shakillantirish chora tadbirlari to’g’risida 2004 yil 23-aprel 197-xson.
18. “Pul mablag’larining bankdan tashqari muomilasini yanada qisqartirish chora tadbirlari to’g’risida” O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori 05.08.2002 y 280-son
19. “Naqd pul muomilasini mustahkamlash va tijorat banklarining masuliyatini oshirishga doir qo’shimcha chora tadbirlar to’g’risi “O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori 22.06.2011.y № 264
20. “Tijorat banklarining kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda qatnashishini rivojlantirishga doir qo’shimcha chora tadbirlar to’g’risida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori 19.05.200y № 195
21. “Bank tizimini isloh qilishga doir qo’shimcha chora tadbirlar to’g’risida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori 24.03.200y № 104.
22. “Tijorat banklari tomonidan qimmatli qog’ozlar bilan operatsiyalar amalga oshirishga doir talablar to’g’risidagi nizom 2004 yil 16-sentabr .
23. O’zbekiston Respublikasi banklarida pul muomilasiga doir ishlarni tashkil etish to’g’risidagi yo’riqnoma 2004 yil 12-oktabr .
24. “Abdullayeva. Sh. Z. Bank ishlari va kreditlash .-T:Moliya, 2002.-3046
25. Taymuhammadov I “Bank ishi” T:TDIU, 2005.
26. Yillik hisobot 2010.T:”Norma”-2010y.
27. Bozor pul va kredit. Jurnal 2009-2011.y
28. Soliq to’lovchining jo’rnali 2005-2010y.

Internet saytlari

29. www.referat.uz
30. www.gao.gov
31. www.mf.uz -Ozbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi sayti.
32. www.finansy.ru -Finansy jurnalining sayti.
33. www.Stat.uz
34. www.uza.uz